

Farg'ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025- yil yanvar-noyabr oylari uchun


- I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra viloyatda 6073 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1039 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,1% i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 1617 tasi (26,6 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 766 tasi (12,6%) kiyim ishlab chiqarishga, 309 tasi (5,0 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 476 tasi (7,8 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni

1- dekabr holatiga ko'ra



II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 49 991,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,2 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg'ona viloyati	49 991,4	107,2
<i>shahar tumanlar:</i>		
Farg'ona shahri	11 172,4	106,5
Qo'qon shahri	8 319,2	109,5
Quvasoy shahri	1830,2	108,3
Marg'ilon shahri	1 980,9	109,3
Oltiariq tumani	956,8	109,2
Qo'shtepa tumani	2554,3	105,6
Bag'dod tumani	1 047,5	106,2
Buvayda tumani	771,0	107,1
Beshariq tumani	1 452,8	109,4
Quva tumani	766,5	101,4
Uchko'priq tumani	3 753,4	106,8
Rishton tumani	499,2	112,1
So'x tumani	170,4	110,8
Toshloq tumani	1 877,0	107,1
O'zbekiston tumani	1 332,4	109,2
Farg'ona tumani	1 649,2	109,6
Dang'ara tumani	1 185,0	107,8
Furqat tumani	767,5	105,5
Yozyovon tumani	397,3	108,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (33 741,6 ming so'm), Qo'qon shahrida (26 344,6 ming so'm), Quvasoy shahrida (17 635,2 ming so'm), Uchko'priq tumanida (15 075,2 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (11 975,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yozyovon tumanida (106,6 %), Farg'ona tumanida (107,4 %), Qo'qon shahrida (107,6 %), Beshariq tumanida (107,5 %), Marg'ilon shahrida (107,5 %) So'x tumanida (107,8 %), Rishton tumanida (110,0 %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar- noyabr oylarida




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 45 910,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,8%)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 292,3 mlrd so'm (0,6%), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 3 406,7 mlrd so'm (6,8 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 381,6 mlrd so'm (0,8%) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025- yilning yanvar-noyabr oylarida

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan



ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 123,5 ming tonna avtomobil benzini (2024- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 49,0 % ga kamaygan), 85 546,1 ming tonna ip kalava (127,6% ga ko'paygan), 991,5 ming litr aroq mahsulotlari (101,7 % ga ko'payga) hamda 366 363,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (156,5 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr*	2024- yil yanvar-noyabr*	2025- yil yanvar-noyabr*
Paxta tolasi, tonna	79 449,2	72 848,9	85 546,1
Paxta urug'lari, tonna	129 990,6	110 558,7	111 465,1
Avtomobil benzini, ming t	287,6	251,9	123,5
Dizel yoqilg'isi, ming t	399,3	331,5	209,5
Paxta linti, tonna	7 088,0	7 101,4	112 245,9
Neft bitumi, ming t	56,4	54,3	50,7
Portlandsement, ming t	711 920,0	401 512,0	386 358,1
Sement klinkrlari, ming t	735 587,0	139 500,0	17 815,0

*2024-2025- yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,0 % (2024 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,5%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –13,7 % (2024 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,7%)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7% ni (2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 20,1 % (15,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,2 % (22,7 %), quyi texnologiyali 53,0 % (49,2 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 94,4 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 128,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr*	2024- yil yanvar-noyabr*	2025- yil yanvar-noyabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln kvts	1 079,5	1 506,2	1 640,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	961,5	1 042,6	1 766,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 103,8 % ni, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 142,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatishni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr*	2024- yil yanvar-noyabr*	2025- yil yanvar- noyabr*
---------------------	--------------------------	--------------------------	---------------------------

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	120,2	213,0	273,2
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	103,9	94,8	108,3

**2024-2025- yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 22 015,5 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,0 %ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 48,2 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

B. Xamdamov
73 241-96-28 (4010)

Manzil:

